QORAQALPOQ XALQ DOSTONLARI VA G‘OYAVIY BADIIY XUSUSIYATLARI

Utemuratova Eliza – *magistrant*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filalli

КАРАКАЛПАКСКИЕ НАРОДНЫЕ ДАСТАНЫ И ИХ ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Утемуратова Элиза – *магистрант*
Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

KARAKALPAK FOLK EPICS AND THEIR IDEOLOGICAL AND ARTISTIC FEATURES

Eliza Utemuratova – *master’s student*
Nukus branch of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Tayanch so‘zlar: doston, folklor, baxshi, tarixiy meros, baxshi, xalq madaniyati.

Rezyume. Qoraqalpoq xalq dostonlari — xalqning o‘tmishi, turmush tarzi va ozodlik uchun kurashini aks ettiruvchi ulkan epik merosdir. Ular o‘zining hajmi, qadimiy qatlamlari va ijro uslubi bilan boshqa turkiy xalqlar eposidan ajralib turadi.Qoraqalpoq dostonlari shunchaki adabiy asar emas, balki xalqning ma’naviy qomusi va milliy o‘zligini saqlab kelgan asosiy manbadir.

Ключевые слова: эпос, фольклор, бахши, историческое наследие, бахши, народная культура.

Резюме. Каракалпакские народные дастаны -это огромное эпическое наследие, отражающее прошлое народа, его образ жизни и борьбу за свободу. Они отличаются от эпосов других тюркских народов своим объемом, древними слоями и стилем исполнения.Каракалпакские дастаны - это не просто литературное произведение, а основной источник, сохранивший духовную энциклопедию и национальную идентичность народа.

Keywords: epic, folklore, bakhshi, historical heritage, bakhshi, folk culture.

Summary. Karakalpak folk epics are a huge epic heritage reflecting the people's past, way of life, and struggle for freedom. They differ from the epics of other Turkic peoples in their size, ancient layers, and style of performance. Karakalpak dastans are not just a literary work, but the main source that preserved the spiritual encyclopedia and national identity of the people.

Qoraqalpoq xalq dostonlari - qoraqalpoq folklorining eng yirik va eng badiiy janrlaridan biri. Dostonlar xalq orasida og‘zaki tarzda paydo bo‘lgan epik asarlar bo‘lib, ular jirovlar va baxshilar tomonidan aytiladi. Dostonlarda qoraqalpoq xalqining tarixi, turmush tarzi, urf-odatlari, ma’naviy qadriyatlari, jasorat va muhabbat mavzulari tasvirlanadi. Ular bir necha asr davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib, bugungi kungacha saqlanib kelgan. Dostonlar xalq uchun nafaqat adabiy asar, balki tarbiyaviy va tarixiy manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. Qoraqalpoq xalq dostonlari - qoraqalpoq folklorining eng boy va qimmatli meroslaridan biri. Ular g‘oyaviy jihatdan vatanparvarlik, adolat, muhabbat va xalq birligi kabi qadriyatlarni tarannum etsa, badiiy jihatdan epik tasvir, boy til va musiqiy ijro bilan ajralib turadi. Dostonlar xalq tarixi va turmushini tasvirlab, milliy madaniyatni saqlashga katta hissa qo‘shadi. Shu bois dostonlar nafaqat adabiy asar, balki xalq tarixi va madaniyatini saqlab kelgan buyuk meros sifatida qadrlanadi. Qoraqalpoq dostonlarining g‘oyaviy mazmuni juda boy. Ularda eng avvalo vatanga sadoqat va vatanparvarlik g‘oyasi namoyon bo‘ladi. Ko‘p dostonlarda bosh qahramonlar yurtini, yerini va xalqini himoya qilish uchun kurashadi. Botirlar dushmanlar bilan jang qilib, elining ozodligi va tinchligi uchun bor kuchini sarflaydi. Masalan, “Alpomish” va “Edige” dostonlarida botir qahramonlar xalqini himoya qilib, jasorat ko‘rsatadi. Bu orqali dostonlar yosh avlodni vatanga muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Dostonlarda adolat va haqiqat g‘oyasi ham katta o‘rin tutadi. Voqealarda yaxshilik bilan yomonlikning kurashi tasvirlanadi. Adolatli va halol qahramonlar oxir-oqibat g‘alaba qozonadi, zolim va adolatsiz odamlar esa jazolanadi. Bu bilan xalq adolat va haqiqat har doim g‘alaba qozonishini ko‘rsatadi. Ko‘p dostonlarda muhabbat va sadoqat mavzusi ham katta ahamiyatga ega. Qahramonlar bir-biriga sodiq bo‘lib, muhabbat uchun qiyinchiliklarni yengib o‘tadi. “G‘arib Oshiq” va “Shahriyor” dostonlarida muhabbat mavzusi alohida badiiy tasvirlanadi. Bu asarlarda insonlar o‘rtasidagi halollik, sadoqat va hurmat kabi qadriyatlar yuksak qadrlanadi. Qoraqalpoq dostonlarining badiiy xususiyatlari ham juda boy. Eng avvalo dostonlarda epik keng tasvirlash usuli qo‘llaniladi. Voqealar batafsil bayon etilib, qahramonlarning

tug‘ilishi, bolalik chog‘i, voyaga yetishi va jasoratlari keng tarzda ko‘rsatiladi. Bu epik janrga xos belgilardan biri hisoblanadi.Dostonlarda qahramon obrazlari ham alohida badiiy tarzda yaratiladi. Bosh qahramonlar odatda kuchli, botir, aqlli va eliga sadoqatli bo‘lib tasvirlanadi. Ular xalq ideallarining ramzi sifatida ko‘rsatiladi. Botir qahramonlar xalq orzusi va armonlarining timsolidir. Til jihatidan qarasak, dostonlarda badiiy tasviriy vositalar juda keng qo‘llaniladi. O‘xshatishlar, metaforalar, epitetlar, takrorlar va maqollar doston tilini boy va ta’sirli qiladi. Bu badiiy til dostonning tinglovchilarga kuchli ta’sir etishiga yordam beradi. Yana bir xususiyat - dostonlarda poeziya va prozaning aralashib kelishi. Voqealar odatda nasr tarzida bayon qilinadi, qahramonlarning so‘zlari, monologlari va dialoglari esa she’r tarzida aytiladi. Bu usul dostonga alohida badiiylik bag‘ishlaydi va uni tinglovchilar uchun qiziqarli qiladi. Qoraqalpoq folklorida “Alpomish”, “Edige”, “Qo‘blon”, “G‘arib Oshiq”, “Qirq qiz”,“Sharyar” kabi ko‘p dostonlar bor. Bu dostonlar qoraqalpoq xalqining tarixini, jasoratini va ma’naviy qadriyatlarini tasvirlaydigan buyuk adabiy merosdir. Qoraqalpoq xalq dostonlari xalq turmushi, tarixi va madaniyatini tasvirlaydigan eng qimmatli folklor asarlari hisoblanadi. Ular g‘oyaviy jihatdan vatanparvarlik, adolat, muhabbat va sadoqat kabi qadriyatlarni tarannum etsa, badiiy jihatdan boy til, epik tasvir va musiqiy ijro bilan ajralib turadi. Shu sababli dostonlar qoraqalpoq xalqining ma’naviy boyligi va milliy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib qoladi.

Xalq ijodining keng qamrovli va qiziqarli janrlaridan biri dostonlardir. Dostonlar janr tabiati va belgilari bo‘yicha epik turga kiradi. Folklor ilmida xalq dostonlarini epos degan termin bilan ham yurgizadi. Masalan, “Qirq qiz” eposi, “Edige”, “Manas eposi”, “Go‘ro‘g‘li” eposi deb ham atash mumkin. Demak, doston va epos folklor ilmida sinonim terminlar hisoblanadi. Dostonlarning syujeti qiziqarli va chigal voqealarga quriladi. Ularda el deb yig‘lagan erlarning botirlik ishlari, yoki o‘z muhabbatiga sodiq bo‘lgan oshiq-ma’shuqlarning chigallashgan taqdirlari kuylanadi. Xalq dostonlarida voqealar ko‘pincha bir xilda boshlanadi, izchil, bosqichma-bosqich rivojlanadi va muvaffaqiyatli, zafarli yakun topadi. Masalan, “Alpomish”, “Maspatsha”, “G‘arib-oshiq” kabi qoraqalpoq xalq dostonlarida syujetlar shu tartibda rivojlanadi va yakunlanadi. Xalq dostonlarining syujetlari ko‘pincha qo‘shiq shaklida, ba’zi dostonlarda qo‘shiq va qora so‘z bilan aralash bayon etiladi. Xalq dostonlari dastlab ijodiy iste’dodga ega jirov yoki baxshi tomonidan yuzaga keladi. So‘ngra dostonlar boshqa ijrochilar tomonidan aytilib, avloddan avlodga o‘tish jarayonida dastlabki ijodkorlar unutiladi va jamoaviy ijodiy asarlarga, ya’ni xalq (folklor) asarlariga aylanadi. Turkiy xalqlarning dostonlari cholg‘u asboblari (qo‘biz, dutor) yordamida ijro etiladi. Dostonlarning ijrochilari qoraqalpoqlarda jirovlar, baxshilar, o‘zbeklarda, turkmanlarda baxshilar, qozoqlarda oqinlar yoki jirchilar deb ataladi. Dostonlarning yozma adabiy turi ham bor. Ular muayyan mualliflar tomonidan yaratilib, individual ijodiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Xususan, ular yozma adabiyot namunalari hisoblanadi, ularga keyingi avlodlar o‘zgartirishlar, qo‘shimchalar kirita olmaydi, tasvirlanayotgan voqealarga, personajlarga shaxsiy mualliflik yondashuvlar, nuqtayi nazarlar beriladi, mualliflik muammolari, g‘oyalar aks ettiriladi. Yozma adabiyot dostonlari yakka mualliflik uslubiga ega bo‘ladi. Masalan, Firdavsiyning “Shohnoma” Navoiyning “Xamsa” Berdaqning “Ahmoq podsho” A.Dabilovning “Bahodir” dostonlari shunday xususiyatlarga ega.

Dostonlar mavzu yo‘nalishi, syujet va g‘oyaviy mazmuniga ko‘ra qahramonlik (botirlik) dostonlari va oshiqlik (lirik-epik dostonlar) ga bo‘linadi. Folklorshunos Q.Maqsetov dostonlarni asosan to‘rt turga bo‘ladi.

1. Qahramonlik dostonlar.
2. Liro-epik dostonlar.
3. Tarixiy dostonlar.
4. Ijtimoiy turmush masalalarini so‘z etuvchi dostonlar.

Bugungi kunda ham shu tasnif bo‘yicha xalq dostonlari o‘rganiladi. Dostonlarning bu tasnifi deyarli barcha janrdagi epos turlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Qoraqalpoq xalq dostonlarining to‘planishi, ularning matbuotda e’lon qilinishi va tadqiq etilishidagi ishlarni biz qoraqalpoq folkloristikasi bo‘limida ta’kidlab o‘tgan edik. Qoraqalpoq folkloristikasida xalq dostonlariga chuqur tadqiqotlar olib borgan olimlar Q. Ayimbetov, N. Davqaraev, Q. Maqsetov, I. Sag‘itov, A.Aliyev, S.Bahadirova, K. Allambergenov, J. Ooshniyazov va yana boshqalar. Mustaqillik yillarida bu asarlarni o‘rganish ishlari yana davom etib, asosan Q. Maqsetov, S.Bahodirova, K. Allambergenov, J. Qo‘shniyazov, K. Palimbetov, J.Nizamatdinov tomonidan tadqiqotlar olib borildi. Qoraqalpoq folklorida dostonlar eng katta janr sifatida bizga ma’lum. Qoraqalpoq dostonlari qoraqalpoq folklorining 20 jildligida va so‘nggi yillarda nashr etilgan qoraqalpoq folklorining 100 jildligida asosiy o‘rinni egallaydi. Dostonlar haqida folklorni o‘rganuvchi olimlar katta ilmiy ishlar

olib bordilar. Shunday bo‘lsa-da, hali o‘z tadqiqotini kutayotgan masalalar juda ko‘p. Dostonlarning bu turini xalq ijodida va folklor ilmida botirlar qo‘shig‘i deb ham ataydi. Qadimgi turkiy so‘z san’atida umuman she’riyatni jir yoki jir deb, uni ijro etuvchilarni esa jirov deb atashgan. Botirlikni kuylovchi asarlar ancha hajmli bo‘lgan va ularni katta dostonlar yoki botirlar qo‘shig‘i deb yuritganlar. Ushbu jir va jirov nomlari o‘sha qadimgi turkiy zamondan boshlab hozirgi davrgacha qoraqalpoqlarning madaniy turmushida uzluksiz qo‘llanilib kelinmoqda. Qahramonlik dostonlari atamasi fors tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek adabiyoti orqali qoraqalpoq adabiyoti va folklor ilmiga XX asrning o‘rtalarida muomalaga kirgan. Hozir bu atama folklorda va ilmda barqarorlashib ketgan, shuning uchun qahramonlik dostonlar va botirlik dostonlar terminlari bilan teng qo‘llanilaveradi. Botirlik dostonlarida el-yurt taqdiri, uning or-nomusi, davlat taqdiri uchun bo‘lgan kurash kuylanadi. Ularning asosiy mavzusi jasorat, el-yurt himoyasi, tashqi dushman bilan kurash, or-nomusni himoya qilishdir. Boshqa barcha voqealar, epizodlar, turmushning turli ko‘rinishlari ushbu asosiy mavzuni to‘ldirish uchun ilovalar sifatida kiritiladi. Dostonlarda botirning ajoyib kuch egasi ekanini, jangovar qobiliyatini, jasoratini, kurashlarda g‘olib bo‘lishini tasvirlashga alohida e’tibor beriladi. Qoraqalpoq botirlik dostonlarini jirovlar chertadigan cholg‘u asbobi qo‘biz yordamida xirillagan ovoz bilan kuylaydigan bo‘lgan. Jirovlar - botirlik dostonlarining ijodkorlari va ijrochilari. Qahramonlik dostonlari quyidagi turg‘un belgi va xususiyatlarga ega bo‘ladi. Dostonning bosh qahramoni ajoyib kuch egasi, dovyurak, buyuk jangchi, ezgu ishlar uchun kurashuvchi fidoyi botir bo‘ladi. Botir ajoyib bo‘lib tug‘iladi, ajoyib bo‘lib o‘sadi. O‘ziga sodiq yo‘ldosh sifatida ajoyib a va qurol-yarog‘ tanlaydi. Dostonda botir bilan ot obrazi ajratilmagan holda bir qo‘shib tushuniladi. Botir kurashda bel bermas ajoyib pahlavon bo‘lib tasvirlanadi. Botir voyaga yetgach, o‘ziga munosib umr yo‘ldoshi - qiz izlaydi. Shu qizni izlash va o‘n elga olib qaytish jarayonida uning botirlik ishlari, pahlavonlik kuchi ko‘rinadi. Botir oqko‘ngil, ishonuvchan, u ba’zan shum niyatli odamlardan aldanadi. Botirning chinakam kuch-qudrati, jangovar iste’dodi, xalq ishiga sadoqati tashqi dushmanlar bilan kurashda namoyon bo‘ladi. Bularning hammasi botirlik dostonining syujetidagi motivlar hisoblanadi. Shunday motivlar kichik-kichik o‘zgarishlar, farqlar bilan ko‘pchilik botirlik dostonlarining syujet mazmuniga asos bo‘ladi. Bunday motivlar qoraqalpoq qahramonlik dostonlari “Alpomish”, “Qo‘blon”, “Maspatsha”, “Edige”, “Qirq qiz” da uchraydi. Badiiy obraz. Badiiy adabiyot va folklor asarlarida tashqi masofa qanday bo‘lsa shunday fotosurat qilib ko‘rsatilmaydi, balki hayot haqiqati qayta ishlanib, badiiy obrazlar orqali aks ettiriladi. Agar asarda turmush materiallari, voqealar, odamlar quruq bayon etilsa, unda asar oddiy, jonsiz ma’lumotnoma darajasida olib qo‘yiladi. Badiiy asar bo‘lishi uchun o‘sha turmush materiallari, voqealar, odamlar, ularning o‘y-fikrlari, ichki his-tuyg‘ulari turli bo‘yoqlar bilan badiiylashtirib berilishi shart, boshqacha aytganda tasvirlanayotgan narsaning aynan nusxasi emas, balki badiiy obraz ajratilishi shart. Badiiy asarda ishtirok etuvchi kishilarning yurish-turishi, fe’l-atvori, qiyofasi (portreti), ichki dunyosi badiiy tasvirlanadi. Ishtirok etuvchi kishilarni adabiyotshunoslik ilmida turlicha atashadi: personajlar, qahramonlar, bosh obrazlar, ikkinchi darajali obrazlar, xarakterlar, tipik obrazlar. Yangi davr badiiy adabiyotida obraz yaratish biroz murakkablashgan. Ishtirok etuvchi shaxslarning obrazlarini yaratish ularning shaxsiy xarakteri orqali amalga oshiriladi, ya’ni, har bir ishtirokchining obrazi boshqalarni takrorlamaydigan shaxsiy xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari, ichki dunyosi, tashqi portreti orqali ochib beriladi, bir so‘z bilan aytganda uning shaxsiy xarakteri yaratiladi. Folklor asarlarida obraz yaratish birmuncha sodda usullarda amalga oshiriladi. Obrazlar qarama-qarshi ikki bo‘yoq bilan: ijobiy va salbiy bo‘lib yaratiladi. Bir obrazga butun bir ijtimoiy guruhning, odamlar xarakterining, butun bir xalqning o‘ziga xos belgilari jamlangan bo‘ladi. Shuning uchun folklor obrazlari yig‘ma obrazlar bo‘lib keladi. Masalan, "Alpomish" dostonida Alpomish obrazi o‘rta asrlardagi urug‘chilik-patriarxat jamiyatining ko‘pchilik belgilarini, urf-odatlarini, Maston kampir, Toyshaxon, Ulton tozni esa insoniylik mezonlariga zid keladigan xususiyatlarni o‘zlarida mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Jarimbetov, J.Nzamatdinov, I.Allambergenova.-“Qaraqalpaq folklori” Toshkent-2018.

2. A. Qaydarov, N.Dauletov –“Qaraqalpaq adebiyati tarixi” Nokis,1994.

3. Q.Maxsetov. – “Qaraqalpaq qaharmanliq dastanlarinin poetikasi” Nokis 1965.

4. Q. Ayimbetov - “Qaraqalpaq folklori” Nokis 1997.